



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI



Respublika
Ta'lim Markazi

**2025-2026-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
9-SINF**

**O'QUVCHILARI UCHUN
O'ZBEK TILI**

(DAVLAT TILI)

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**2025-2026-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN O'ZBEK TILI
(DAVLAT TILI) FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI TEST
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilarini o'zbek (davlat) tili fanidan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari hamda o'tkazish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – 9-sinf o'quvchilarining o'zbek (davlat) tili fanidan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini amaldagi o'quv dasturlarida belgilangan o'quv maqsadlari asosida kompleks baholash.

Mazkur baholash natijalari asosida 9-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlarning asosli (valid) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolatlilik hamda ochiqlik prinsiplariga amal qilinishi ta'minlanadi.

II. Huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2008-yil 4-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 56-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizom".

2. O'zbek (davlat) tili fanidan 5–9-sinflar uchun amaldagi o'quv dasturi.

3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 16-martdagi "2025-2026-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 102-son buyrug'i.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

O'quvchilarning o'zbek (davlat) tili fanini bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 10 ta variant taqdim etiladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari fan bo'limlari kesimida tuzilib, talaffuz va imlo, punktuatsiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va matnni tushunish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, topshiriqlar bilim, qo'llash va fikrlash faoliyatiga doir baholash mezonlari asosida ishlab chiqiladi.

Har bir variantda o'quvchiga 5 ta topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqlardan: 2 ta bilishga oid, 2 ta qo'llashga oid, 1 ta mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt ajratiladi.

IV. Kognitiv ko‘nikmalar bo‘limlar bo‘yicha taqsimoti

Bilish (B)		Qo‘llash (Q)		Mulohaza (M)		Umumiy ball
soni	ball	soni	ball	soni	ball	
O‘zbek tili						
2	10 baldan (20 ball)	2	20 baldan (40 ball)	1 ta	40 ball	100 ball

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)
Bilish (B)	Bilish darajasidagi, ya’ni reproduktiv topshiriqlar, o‘quvchidan fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanishini tushunishni talab qiladi.	2
Qo‘llash (Q)	Qo‘llash darajasidagi, ya’ni produktiv topshiriqlar, o‘quvchidan bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llashni talab qiladi.	2
Mulohaza qilish (M)	Mulohaza darajasidagi, ya’ni faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish.	1

V. Baholanadigan mazmun sohalari, bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar, topshiriq turi, kognitiv daraja va baholash mezonlari

Mazmun soha	Savol t/r	Konstruktlar	Kognitiv darajasi	Baholash mezonlari
O‘zbek tili				
Leksikologiya	1	Ma’nodosh, shakldosh, paronimlar va qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni ajratish va ularning ma’nosini tushuna olish	B	10 ball
Morfologiya	2	Mustaqil, yordamchi so‘z turkumlari hamda modal so‘zlar, undov va taqlid so‘zlar bo‘yicha tahlil qilish	B	10 ball
Morfologiya	3	Mustaqil, yordamchi so‘z turkumlari hamda modal so‘zlar, undov va taqlid so‘zlar qo‘llay olish	Q	20 ball

Sintaksis	4	Gap bo‘laklari, undalma, uyushiq va ajratilgan bo‘laklar bo‘yicha tahlil qilish	Q	20 ball
Matnni tushunish	5	Matn mazmuni yuzasidan to‘g‘ri xulosa chiqarish	M	40 ball
Jami				100 ball

VI. Ballni bahoga aylantirish tartibi

T/r	Ball (%)	Baho	Izoh
1.	0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
2.	30 – 65	“3”	“qoniqarli”
3.	66 – 85	“4”	“yaxshi”
4.	86 – 100	“5”	“a’lo”

VII. Sinov jarayoniga qo‘yiladigan talablar

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat’iyan taqiqlanadi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon vaqtida gaplashish hamda ruxsatsiz chiqish taqiqlanadi.

Nazorat qiluvchi tomonidan tartib buzilishi aniqlanganda dalolatnoma tuziladi, o‘quvchi testdan chetlashtiriladi va natijasi bekor qilinadi.

VIII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbek tili 5-sinf A. Rafiyev, G. Muxamedjanova, N. Alovuddinova – “O‘qituvchi ” Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi Toshkent – 2020

2. O‘zbek tili 6-sinf D.Hidoyatova, N.Rasulov, N.Yuldasheva, N.Usmonova, Y.Xasanova – “Yangi nashr” Nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2022.

3. O‘zbek tili 7-sinf D.Xidoyatova, M.Tulasheva, N.Rasulov, N.Matlatipova, N.Allamberganova, O.Beganchova – Respublika ta’lim markazi Toshkent – 2022.

4. O‘zbek tili 8-sinf X.Muxitdinova – “O‘qituvchi” Nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2024.

5. O‘zbek tili 9-sinf A.Rafiyev, G.Muxamedjanova – “O‘qituvchi ” Nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2024.

1-SAVOL

Vatanga muhabbat

Vatan **inson** tugʻilib oʻsgan muqaddas maskandir. Har bir inson uchun ona yurti eng aziz joy hisoblanadi. Vatan bizga erkinlik, baxt va saodat, madaniyat va qadriyatlarimiz daxlsizligini beradi. Ajdodlarimiz yurt tinchligi uchun kurashganlar.

Vatanni sevmogʻi faqat soʻzda aks etmogʻi kerak emas, inson vatanni bor **yujudi** bilan sevib, ruhan his qilib yashamogʻi kerak. Mustaqil yurtimiz kelajagi biz yoshlar qoʻlida. Biz yoshlar yaxshi oʻqib, bilimli boʻlish orqali yurt ravnaqiga hissa qoʻshmogʻimiz, uni koʻz qorachigʻidek asramogʻimiz kerak.

Vatanni sevgan inson uni **himoya** qilishga ham tayyor turadi. Yurtimiz tabiati, boyliklari va qadriyatlari bilan goʻzal. Har bir fuqaro Vatan shaʼni uchun munosib kurashmogʻi lozim. Vatanni sevish ota-onani sevish bilan chambarchas bogʻliq. Chunki **vatan** ota-onamizni, ota-bobolarimizni ham oʻz bagʻriga olgan **muqaddas** dargohdir. Vatanni sevgan inson hech qachon kam boʻlmaydi.

1. (Bilish – 10 ball) Matnda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning sinonimlarini aniqlang va ularning maʼno boʻyoqdorligini (ijobiy, salbiy) izohlang.

Ota-onaga hurmat

Ota-ona inson hayotidagi eng **ulugʻ** zotdir. Ular farzandining kamolini istab yashaydilar. Ota-onaning mehrini hech narsa bilan oʻlchab boʻlmaydi. Ular farzandi uchun mehnat qiladi va qaygʻuradi. Farzand esa ularning ishonchini oqlashi kerak.

Ota-onani hurmat qilish milliy qadriyatlarimizdan biridir. Ularning duosi inson hayotida **katta** ahamiyatga ega. Ota-ona farzandiga **toʻgʻri** yoʻl koʻrsatadi. Dono insonlar ota-ona roziligini eng katta boylik deb biladilar. Ota-onaga mehr koʻrsatgan farzand jamiyatda ham hurmat topadi. Ularning pand-nasihatlarini hayot yoʻlida yordam beradi. Ota-ona xizmatini qilish farzandning burchidir. Har bir farzand ota-onasini eʼzozlashi kerak. Ota-onamiz qariganda ularga **gʻamxoʻrlik**

qilishimiz zarur. Ota-onani qadrlagan inson **baxt** va saodatga erishadi. Aziz tengdoshim, siz ota-onangizning maslahatlariga qay darajada quloq solyapsiz?

Topshiriq:

1. (**Bilish–10 ball**) Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning antonimlarini aniqlang.

Do'stlik va sadoqat

Do'stlik inson hayotida muhim o'rin tutadi. Chin do'st og'ir kunda bilinadi. Do'st insonni qo'llab-quvvatlaydi. Sodiq do'st har doim yoningizda bo'ladi. Do'stlik o'zaro hurmatga asoslanadi. Do'stlar bir-birining kamchiligini to'g'ri ko'rsatadi. Sadoqat do'stlikning eng muhim belgilaridan biridir. Yaxshi do'stlar insonni yomon yo'ldan qaytaradi. Do'stlar quvonchni ham, tashvishni ham birga baham ko'radi.

Soxta do'stlik uzoq davom etmaydi. Chunki bunday do'stlik samimiyat va ishonchga asoslanmaydi. Soxta do'st qiyin vaqtlarda insonni yolg'iz qoldiradi, dardlariga sherik bo'lmaydi. Shuning uchun har bir inson chin va sodiq do'stlarni qadrlashi kerak.

Topshiriq:

1. (**Bilish – 10 ball**) Matndan ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni toping va ularning o'z ma'nolari orasidagi farqlarni izohlang. (og'ir kun, to'g'ri ko'rsatmoq, yomon yo'l)

Ilm va ma'rifat – hayot oftobi

Ilm insonni komillikka yetaklaydi. Bilimli inson jamiyatda hurmat qozonadi. Ajdodlarimiz ilmga katta e'tibor berishgan. Alisher Navoiy ilmni eng katta boylik deb hisoblagan.

Ilm inson dunyoqarashini kengaytiradi. Bilim **insonni** to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ma'rifat jamiyatni taraqqiy ettiradi. Ilm va ma'rifat yonma-yon yuradi. Biz, yoshlar, ko'p kitob o'qib, bilim va ma'rifatga ega bo'lar ekanmiz, kun kelib olgan bilimlarimiz hayotimizga **oftob** misol nur sohib, yorug'lik taratishini unutmashimiz zarur.

Ilm **mehnat** orqali egallanadi. Bilim bilan muammolar oson hal qilinadi. Ilmli kishilar jamiyat rivojiga hissa qo'shishadi. Kitob insonning eng yaqin **do'sti** hisoblanadi. Har bir yosh bilim olmoqchi bo'lsa, albatta, kitob o'qishni odat qilmog'i zarur. Ilm va ma'rifat insonni yuksak marralarga olib chiqadi. Ilm kelajak poydevoridir.

Topshiriq:

1. (**Bilish – 10 ball**) Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshlarini aniqlang.

Rostgo'ylik

Rostgo'ylik insonning eng muhim va ulug' fazilatlaridan biridir. Rostgo'y inson har doim odamlar orasida hurmat qozonadi. Rostgo'ylik insonning ichki dunyosi sof ekanini namoyon etadi.

Rost gapirish odamlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Rostgo'y inson yolg'ondan yiroq bo'ladi. Bunday inson vijdoni oldida o'zini erkin his qiladi. Rostgo'ylik insonni **to'g'ri** yo'lga boshlaydi. Rost so'z insonning obro'sini oshiradi. Rostgo'y odam har qanday vaziyatda haqiqatni aytishga intiladi. Rostgo'ylik bizga ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy merosdir. Axir, "**Boshingga qilich kelsa ham rost gapir**",- deb bejiz aytmagan dono xalqimiz.

Rostgo'ylik tarbiya orqali shakllanadi. Ota-ona va ustozlar bolalarni rostgo'y bo'lishga o'rgatadilar. Rostgo'ylik do'stlik va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Yolg'on esa insonni noto'g'ri yo'lga boshlaydi. Yolg'on gapirgan odam asta-sekin ishonchni yo'qotadi. Bunday inson atrofdagilar hurmatidan mahrum bo'lishi aniq, shuning uchun har bir inson doimo rostgo'y bo'lishga intilishi zarur.

Topshiriq:

1. **(Bilish – 10 ball)** Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini yozing.

Mehnatsevarlik –inson ziynati

Mehnat inson hayotining mazmunidir. Mehnatsevar inson doimo muvaffaqiyatga erishadi. Ajdodlarimiz mehnatni ulug'laganlar. Halol mehnat inson hayotiga baraka keltiradi. Xalqimizda: "Mehnatdan kelsa **boylik**, turmush bo'lar chiroyli",- degan maqol bor.

Mehnat qilish orqali inson tajriba orttiradi. Mehnatsevar odam jamiyatda hurmat topadi. Biz, yoshlar, mehnat qilishga odatlanishimiz kerak. Mehnat insonni chiniqtiradi va **sabrli** qiladi. Har qanday yutuq mehnat bilan keladi. Mehnat bizni eng katta orzularimizga erishtiradi.

Dangasalik inson hayotini zulmat sari olib boradi. **Dangasa** odam ko'pincha **muvaffaqiyat**ga erisha olmaydi, chunki dangasalik insonning imkoniyatlarini cheklaydi. Bunday inson vaqtni foydasiz ishlarga sarflaydi. Dangasalik umrning behuda o'tishiga sabab bo'lishini unutmashimiz zarur.

Topshiriq:

1. **(Bilish – 10 ball)** Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing?

Tabiatni asrash-burchimiz

Tabiat inson hayotining ajralmas qismidir. Inson tabiatdan oziq-ovqat va turli resurslar oladi. Daraxtlar havoni tozalab, inson salomatligini saqlashga xizmat qiladi. Suv hayot manbai hisoblanadi. Qushlar va hayvonlar tabiat muvozanatini saqlaydi. Inson tabiatning bir qismidir, shu bois ham u tabiatsiz yashay olmaydi. Tabiat insonning makoni, hayot manbai, shuning uchun ham inson va tabiat o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Insonning tabiatga ongli, mas’uliyatli va ehtiyotkor munosabatda bo‘lishi, uni asrab-avaylashi ekologik madaniyatdir. Ekologik madaniyatga ega inson atrof-muhitni toza saqlashga harakat qiladi, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanadi. Afsuski, bugungi kunda ekologik muammolar dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Havo ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Suv manbalarining kamayishi va ifloslanishi ham katta muammolardan biridir. O‘rmonlarning kesilishi tabiiy muvozanat buzilishiga olib kelmoqda. Iqlim o‘zgarishi natijasida tabiat hodisalari ko‘paymoqda. Shuning uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish va tabiatni asrash har bir insonning muhim vazifasiga aylanib qoldi.

Ayniqsa, har bir inson chiqindilarni maxsus chiqindixonalarga tashlashi kerak. Daraxt ekish savobli va foydali ish hisoblanadi. Darhaqiqat, “Birni kessang o‘nni ek”, - deb bejiz aytmagan ota-bobolarimiz.

Tabiatni sevgan inson uni asraydi. Albatta, biz yoshlar tabiatni muhofaza qilish ishlarida faol ishtirok etishimiz lozim. Tabiatning “Ey, insonlar, meni asrang, bo‘lmasa o‘z hayotingiz qotiliga aylanasiz” deyotgan unsiz hayqirig‘iga qalban, ruhan quloq solmog‘imiz darkor. Atrof-muhitni toza saqlash bizning muhim vazifalarimizdan biri ekanini unutmasligimiz zarur. Shubhasiz, tabiatni asrash – kelajakni asrash demakdir.

Topshiriq:

1. **(Bilish – 10 ball)** Matnda ekologik madaniyatga ega insonning fazilatlar qaysi soʻz yoki birikmalar bilan ifodalangan?

Milliy qadriyatlar va urf-odatlar – oltin merosimiz

Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz? Hech oʻylab koʻrganmisiz, biz buyuk merosga ega merosxoʻrlarmiz. Sababi, milliy qadriyatlar xalqning eng bebaho merosidir. Ular ajdodlardan avlodlarga oʻtib keladi va xalqimizning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini aks ettiradi.

Milliy bayramlar, xususan, Navroʻz xalqni birlashtiradi va qadriyatlarni yosh avlodga oʻrgatishda muhim rol oʻynaydi. Qadriyatlarni asrash har bir insonning burchi boʻlib, ular millatning oʻzligini saqlashga xizmat qiladi. Oʻzbekistonning boy madaniy merosi xalqimizni dunyo xalqlari orasida tutgan oʻrnini belgilaydi.

Qadimiy shahar va yodgorliklarimizdan Xorazmda joylashgan Ichan Qalʼa, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, Samarqandning tarixiy obidalari UNESCO — Jahon merosi roʻyxatiga kirgani bizning merosimiz buyuk meros ekanidan dalolatdir.

Shunday qilib, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz, nafaqat, xalqimizning boy tarixi, balki butun dunyo tomonidan qadrlanadigan merosdir. Ularni saqlash, yosh avlodga yetkazish har birimizning sharafl burchimizdir.

Topshiriq:

1. **(Bilish – 10 ball)** Matndan oʻzaro antonimlik hosil qila oladigan soʻzlarni toping va ularning maʼnolarini izohlang.

Buyuk ajdodlar ibrati

Buyuk ajdodlarimiz biz uchun ibrat maktabidir. Ular ilm, ma'rifat va yurt ravnaqi yo'lida bor hayotlarini bahshida qilganlar.

Forobiy, Al-Farg'oni, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar ilm-fan, falsafa, tibbiyot va astronomiya sohalarida kashfiyotlar qilib, ko'plab ilmiy asarlar yozib, bizga meros qilib qoldirganlar. Ularning asarlari bugungi kunda ham qadrlanmoqda va ilm olish, tafakkur qilish, halollik hamda adolat kabi qadriyatlarni yosh avlodga yetkazmoqda.

Alisher Navoiy, adabiyot va ma'naviyatni yuksaltirgan buyuk shoirimiz, o'z asarlarida insoniylik, mehr-muhabbat hamda donolik kabi insoniy fazilatlariga katta urg'u berganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur, shoir va buyuk davlat arbobi, yurtimiz ma'naviy boyligini boyitib, sabr, jasorat hamda halollikka chorlagan.

XIX–XX asrda yoshlarni zamonaviy bilimga oshno qilishga xizmat qilgan, ma'naviy uyg'onishga chorlagan, dunyo tillarini o'rganish davlat rivoji uchun katta hissa qo'shishini uqtirgan va xalq uchun maktablar ochib, bor umrini ma'rifatparvarlik harakatlarini ilgari surishga bag'ishlagan jadidlarimiz ham bizga Vatan uchun, xalq uchun qanday fidoyilik ko'rsatishimiz zarurligini uqtirganlar.

Topshiriq:

1. (Bilish – 10 ball) Matndan o'zaro sinonimlik hosil qila oladigan so'zlarni toping va ularning ma'nolarini izohlang.

Yoshlik–kelajak poydevori

Yoshlik inson hayotining eng **go'zal** va muhim davridir. Bu davr orzu va maqsadlar bilan **boy** bo'lib, har bir yoshning o'z orzusi va umidlari bo'ladi. Maqsad insonni harakatga undaydi, uni hayot yo'lida muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim omil hisoblanadi. Orzular esa faqat mehnat orqali amalga oshadi, shuning uchun biz yoshlar befarqlik qilmay, vaqtni behuda sarflamay, orzularimiz sari intilishimiz zarur.

Yaxshi maqsad insonni yuksaltiradi va uni ruhiy yetuklikka yetkazadi. O'qish va izlanish muvaffaqiyatning asosiy kalitidir, chunki yoshlikda olingan bilim butun umr davomida insonga xizmat qiladi. Maqsadsiz inson hayotda adashadi, orzular esa uni doimo oldinga chorlaydi.

Shu o‘rinda **buyuk** allomamiz Al-Farg‘oniyning: “Ilm – insonning eng ishonchli **do‘sti**, u bilan yolg‘iz qolmaysan va hayotda hech qachon adashmaysan”,-degan hikmatlarini eslash o‘rinlidir.

Yoshlik kelajak poydevori ekanini, bu davrda shakllangan odat, olingan bilim va qo‘yilgan maqsad bizning butun hayotimizni belgilashini unutmasligimiz kerak.

Topshiriq:

1. (**Bilish – 10 ball**) Matnda tagiga chizilgan so‘zlarning antonimlarini yozing va ularning ma’nolarini izohlang.

2-SAVOL

Vatanga muhabbat

Vatan inson tugʻilib oʻsgan muqaddas maskandir. Har bir inson uchun ona yurti eng aziz joy hisoblanadi. Vatan bizga erkinlik, baxt va saodat, madaniyat va qadriyatlarimiz daxlsizligini beradi. Ajdodlarimiz yurt tinchligi uchun kurashganlar.

Vatanni sevmogʻi faqat soʻzda aks etmogʻi kerak emas, inson vatanni bor vujudi bilan sevib, ruhan his qilib yashamogʻi kerak. Mustaqil yurtimiz kelajagi biz yoshlar qoʻlida. Biz, yoshlar, yaxshi oʻqib, bilimli boʻlish orqali yurt ravnaqiga hissa qoʻshmogʻimiz, uni koʻz qorachigʻidek asramogʻimiz kerak.

Vatanni sevgan inson uni himoya qilishga ham tayyor turadi. Yurtimiz tabiati, boyliklari va qadriyatlari bilan goʻzal. Har bir fuqaro Vatan shaʼni uchun munosib kurashmogʻi lozim. Vatanni sevish ota-onani sevish bilan chambarchas bogʻliq. Chunki vatan ota-onamizni, ota-bobolarimizni ham oʻz bagʻriga olgan muqaddas dargohdir. Vatanni sevgan inson hech qachon kam boʻlmaydi.

Topshiriq:

2. **(Bilish – 10 ball)** Matnda uchragan yordamchi soʻzlarni aniqlang va ularning qaysi soʻz turkumiga oid ekanligini yozing.

Ota-onaga hurmat

Ota-ona inson hayotidagi eng ulugʻ zotdir. Ular farzandining kamolini istab yashaydilar. Ota-onaning mehrini hech narsa bilan oʻlchab boʻlmaydi. Ular farzandi uchun mehnat qiladi va qaygʻuradi. Farzand esa ularning ishonchini oqlashi kerak.

Ota-onani hurmat qilish milliy qadriyatlarimizdan biridir. Ularning duosi inson hayotida katta ahamiyatga ega. Ota-ona farzandiga toʻgʻri yoʻl koʻrsatadi. Dono insonlar ota-ona roziligini eng katta boylik deb bilganlar. Ota-onaga mehr

ko'rsatgan farzand jamiyatda ham hurmat topadi. Ularning pand-nasihatlar hayot yo'lida yordam beradi. Ota-ona xizmatini qilish farzandning burchidir. Har bir farzand ota-onasini e'zozlashi kerak. Ota-onamiz qariganda ularga g'amxo'rlik qilishimiz zarur. Ota-onani qadrlagan inson baxt va saodatga erishadi. Aziz tengdoshim, siz ota-onangizning maslahatlariga qay darajada quloq solyapsiz?

Topshiriq:

2. **(Bilish – 10 ball)** Matndan olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni topib yozing va ularning ma'nosiga ko'ra turlarini aniqlang.

Do'stlik va sadoqat

Do'stlik inson hayotida muhim o'rin tutadi. Chin do'st og'ir kunda bilinadi. Do'st insonni qo'llab-quvvatlaydi. Sodiq do'st har doim yoningizda bo'ladi. Do'stlik o'zaro hurmatga asoslanadi. Do'stlar bir-birining kamchiligini to'g'ri ko'rsatadi. Sadoqat do'stlikning eng muhim belgilaridan biridir. Yaxshi do'stlar insonni yomon yo'ldan qaytaradi. Do'stlar quvonchni ham, tashvishni ham birga baham ko'radi.

Soxta do'stlik uzoq davom etmaydi. Chunki bunday do'stlik samimiyat va ishonchga asoslanmaydi. Soxta do'st qiyin vaqtlarda insonni yolg'iz qoldiradi, dardlariga sherik bo'lmaydi. Shuning uchun har bir inson chin va sodiq do'stlarni qadrlashi kerak.

Topshiriq:

2. **(Bilish – 10 ball)** Matnda qatnashgan mavhum otlarni aniqlab yozing.

Ilm va ma'rifat – hayot oftobi

Ilm insonni komillikka yetaklaydi. Bilimli inson jamiyatda hurmat qozonadi. Ajdodlarimiz ilmga katta e'tibor berishgan. Alisher Navoiy ilmni eng katta boylik deb hisoblagan.

Ilm inson dunyoqarashini kengaytiradi. Bilim insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ma'rifat jamiyatni taraqqiy ettiradi. Ilm va ma'rifat yonma-yon yuradi. Biz, yoshlar, ko'p kitob o'qib, bilim va ma'rifatga ega bo'lar ekanmiz, kun kelib olgan bilimlarimiz hayotimizga oftob misol nur sohib, yorug'lik taratishini unutmashimiz zarur.

Ilm mehnat orqali egallanadi. Bilim bilan muammolar oson hal qilinadi. Ilmli kishilar jamiyat rivojiga hissa qo'shishadi. Kitob insonning eng yaqin do'sti hisoblanadi. Har bir yosh bilim olmoqchi bo'lsa, albatta, kitob o'qishni odat qilmog'i zarur. Ilm va ma'rifat insonni yuksak marralarga olib chiqadi. Ilm kelajak poydevoridir.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan fe'l so'z turkumiga oid 10 ta so'zni noaniq shaklda yozing.

Rostgo'ylik

Rostgo'ylik insonning eng muhim va ulug' fazilatlaridan biridir. Rostgo'y inson har doim odamlar orasida hurmat qozonadi. Rostgo'ylik insonning ichki dunyosi sof ekanini namoyon etadi.

Rost gapirish odamlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Rostgo'y inson yolg'ondan yiroq bo'ladi. Bunday inson vijdoni oldida o'zini erkin his qiladi. Rostgo'ylik insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Rost so'z insonning obro'sini oshiradi. Rostgo'y odam har qanday vaziyatda haqiqatni aytishga intiladi.

Rostgo'ylik bizga ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy merosdir. Axir, "Boshingga qilich kelsa ham rost gapir",- deb bejiz aytmagan dono xalqimiz.

Rostgo'ylik tarbiya orqali shakllanadi. Ota-ona va ustozlar bolalarni rostgo'y bo'lishga o'rgatadilar. Rostgo'ylik do'stlik va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Yolg'on esa insonni noto'g'ri yo'lga boshlaydi. Yolg'on gapirgan odam asta-sekin ishonchni yo'qotadi. Bunday inson atrofdagilar hurmatidan mahrum bo'lishi aniq, shuning uchun har bir inson doimo rostgo'y bo'lishga intilishi zarur.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan sifat so'z turkumiga oid 10 ta so'z topib yozing.

Mehnatsevarlik –inson ziynati

Mehnat inson hayotining mazmunidir. Mehnatsevar inson doimo muvaffaqiyatga erishadi. Ajdodlarimiz mehnatni ulug'laganlar. Halol mehnat inson hayotiga baraka keltiradi. Xalqimizda: "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli",- degan maqol bor.

Mehnat qilish orqali inson tajriba orttiradi. Mehnatsevar odam jamiyatda hurmat topadi. Biz, yoshlar, mehnat qilishga odatlanishimiz kerak. Mehnat insonni chiniqtiradi va sabrli qiladi. Har qanday yutuq mehnat bilan keladi. Mehnat bizni eng katta orzularimizga erishtiradi.

Dangasalik inson hayotini zulmat sari olib boradi. Dangasa odam ko'pincha muvaffaqiyatga erisha olmaydi, chunki dangasalik insonning imkoniyatlarini cheklaydi. Bunday inson vaqtni foydasiz ishlarga sarflaydi. Dangasalik umrning behuda o'tishiga sabab bo'lishini unutmashimiz zarur.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan yordamchi soʻz turkumiga oid soʻzlarni topib yozing va ularning turlarini aniqlang.

Tabiatni asrash

Tabiat inson hayotining ajralmas qismidir. Inson tabiatdan oziq-ovqat va turli resurslar oladi. Daraxtlar havoni tozalab, inson salomatligini saqlashga xizmat qiladi. Suv hayot manbai hisoblanadi. Qushlar va hayvonlar tabiat muvozanatini saqlaydi. Inson tabiatning bir qismidir, shu bois ham u tabiatsiz yashay olmaydi. Tabiat insonning makoni, hayot manbai, shuning uchun ham inson va tabiat oʻzaro chambarchas bogʻliqdir.

Insonning tabiatga ongli, masʼuliyatli va ehtiyotkor munosabatda boʻlishi, uni asrab-avaylashi ekologik madaniyatdir. Ekologik madaniyatga ega inson atrof-muhitni toza saqlashga harakat qiladi, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanadi. Afsuski, bugungi kunda ekologik muammolar dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Havo ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Suv manbalarining kamayishi va ifloslanishi ham katta muammolardan biridir. Oʻrmonlarning kesilishi tabiiy muvozanat buzilishiga olib kelmoqda. Iqlim oʻzgarishi natijasida tabiat hodisalari koʻpaymoqda. Shuning uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish va tabiatni asrash har bir insonning muhim vazifasiga aylanib qoldi.

Ayniqsa, har bir inson chiqindilarni maxsus chiqindixonalarga tashlashi kerak. Daraxt ekish savobli va foydali ish hisoblanadi. Darhaqiqat, “Birni kessang oʻnni ek”,- deb bejiz aytmagan ota-bobolarimiz.

Tabiatni sevgan inson uni asraydi. Albatta, biz, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish ishlarida faol ishtirok etishimiz lozim. Tabiatning “Ey, insonlar, meni asrang, boʻlmasa oʻz hayotingiz qotiliga aylanasiz” deyotgan unsiz hayqirigʻiga qalban, ruhan quloq solmogʻimiz darkor. Atrof-muhitni toza saqlash bizning muhim vazifalarimizdan biri ekanini unutmasligimiz zarur. Shubhasiz, tabiatni asrash kelajakni asrash demakdir.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan modal soʻzlarni topib yozing va ularning maʼno turlarini izohlang.

Milliy qadriyatlar va urf-odatlar – oltin merosimiz

Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz? Hech oʻylab koʻrganmisiz, biz buyuk merosga ega merosxoʻrlarmiz. Sababi, milliy qadriyatlar xalqning eng bebaho merosidir. Ular ajdodlardan avlodlarga oʻtib keladi va xalqimizning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini aks ettiradi.

Milliy bayramlar, xususan, Navroʻz xalqni birlashtiradi va qadriyatlarni yosh avlodga oʻrgatishda muhim rol oʻynaydi. Qadriyatlarni asrash har bir insonning burchi boʻlib, ular millatning oʻzligini saqlashga xizmat qiladi. Oʻzbekistonning boy madaniy merosi xalqimizning dunyo xalqlari orasida tutgan oʻrnini belgilaydi.

Qadimiy shahar va yodgorliklarimizdan Xorazmda joylashgan Ichan Qalʼa, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, Samarqandning tarixiy obidalari UNESCO — Jahon merosi roʻyxatiga kirgani bizning merosimiz buyuk meros ekanidan dalolatdir.

Shunday qilib, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz, nafaqat, xalqimizning boy tarixi, balki butun dunyo tomonidan qadrlanadigan merosdir. Ularni saqlash, yosh avlodga yetkazish har birimizning sharaflı burchimizdir.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan sifat soʻz turkumiga oid soʻzlarni topib yozing.

Buyuk ajdodlar ibrati

Buyuk ajdodlarimiz biz uchun ibrat maktabidir. Ular ilm, ma'rifat va yurt ravnaqi yo'lida bor hayotlarini bahshida qilganlar.

Forobiy, Al-Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar ilm-fan, falsafa, tibbiyot va astronomiya sohalarida kashfiyotlar qilib, ko'plab ilmiy asarlar yozib, bizga meros qilib qoldirganlar. Ularning asarlari bugungi kunda ham qadrlanmoqda va ilm olish, tafakkur qilish, halollik hamda adolat kabi qadriyatlarni yosh avlodga yetkazmoqda.

Alisher Navoiy - adabiyot va ma'naviyatni yuksaltirgan buyuk shoirimiz, o'z asarlarida insoniylik, mehr-muhabbat hamda donolik kabi insoniy fazilatlarga katta urg'u berganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur - shoir va buyuk davlat arbobi, yurtimiz ma'naviy boyligini boyitib, sabr, jasorat va halollikka chorlagan.

XIX–XX asrda yoshlarni zamonaviy bilimga oshno qilishga xizmat qilgan, ma'naviy uyg'onishga chorlagan, dunyo tillarini o'rganish davlat rivoji uchun katta hissa qo'shishini uqtirgan va xalq uchun maktablar ochib, bor umrini ma'rifatparvarlik harakatlarini ilgari surishga bag'ishlagan jadidlarimiz ham bizga Vatan uchun, xalq uchun qanday fidoyilik ko'rsatishimiz zarurligini uqtirganlar.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan ot so'z turkumiga oid so'zlardan 10 ta topib yozing.

Yoshlik–kelajak poydevori

Yoshlik inson hayotining eng go'zal va muhim davridir. Bu davr orzu va maqsadlar bilan boy bo'lib, har bir yoshning o'z orzusi va umidlari bo'ladi. Maqsad insonni harakatga undaydi, uni hayot yo'lida muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim omil hisoblanadi. Orzular esa faqat mehnat orqali amalga oshadi, shuning uchun biz, yoshlar, befarq bo'lmay, vaqtni behuda sarflamay, orzularimiz sari intilishimiz zarur.

Yaxshi maqsad insonni yuksaltiradi va uni ruhiy yetuklikka yetkazadi. O'qish va izlanish muvaffaqiyatning asosiy kalitidir, chunki yoshlikda olingan bilim butun umr davomida insonga xizmat qiladi. Maqsadsiz inson hayotda adashadi, orzular esa uni doimo oldinga chorlaydi.

Shu o‘rinda buyuk allomamiz Al-Farg‘oniyning: “Ilm – insonning eng ishonchli do‘sti, u bilan yolg‘iz qolmaysan va hayotda hech qachon adashmaysan”,-degan hikmatlarini eslash o‘rinlidir.

Yoshlik kelajak poydevori ekanini, bu davrda shakllangan odat, olingan bilim va qo‘yilgan maqsad bizning butun hayotimizni belgilashini unutmasligimiz kerak.

Topshiriq:

2. (Bilish – 10 ball) Matndan yordamchi so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib yozing va ularning turlarini aniqlang.

3-SAVOL

Vatanga muhabbat

Vatan inson tugʻilib oʻsgan muqaddas maskandir. Har bir inson uchun ona yurti eng aziz joy hisoblanadi. Vatan bizga erkinlik, baxt va saodat, madaniyat va qadriyatlarimiz daxlsizligini beradi. Ajdodlarimiz yurt tinchligi uchun kurashganlar.

Vatanni sevmoq faqat soʻzda aks etmogʻi kerak emas, inson vatanni bor vujudi bilan sevib, ruhan his qilib yashamogʻi kerak. Mustaqil yurtimiz kelajagi biz yoshlar qoʻlida. Biz, yoshlar, yaxshi oʻqib, bilimli boʻlish orqali yurt ravnaqiga hissa qoʻshmogʻimiz, uni koʻz qorachigʻidek asramogʻimiz kerak.

Vatanni sevgan inson uni himoya qilishga ham tayyor turadi. Yurtimiz tabiati, boyliklari va qadriyatlari bilan goʻzal. Har bir fuqaro Vatan shaʼni uchun munosib kurashmogʻi lozim. Vatanni sevish ota-onani sevish bilan chambarchas bogʻliq. Chunki vatan ota-onamizni, ota-bobolarimizni ham oʻz bagʻriga olgan muqaddas dargohdir. Vatanni sevgan inson hech qachon kam boʻlmaydi.

3.Topshiriq: (Qoʻllash – 20 ball)

1. Matndan olmosh soʻz turkumiga oid soʻzlarni aniqlab, maʼnoviy turlariga koʻra ajratib yozing. (5 ball)

2. Matnda ishtirok etgan olmoshlardan foydalangan holda matn mazmuniga xos 3ta gap tuzing. (15 ball)

1. _____

2. _____

3. _____

Ota-onaga hurmat

Ota-ona inson hayotidagi eng ulugʻ zotdir. Ular farzandining kamolini istab yashaydilar. Ota-onaning mehrini hech narsa bilan oʻlchab boʻlmaydi. Ular farzandi uchun mehnat qiladi va qaygʻuradi. Farzand esa ularning ishonchini oqlashi kerak.

Ota-onani hurmat qilish milliy qadriyatlarimizdan biridir. Ularning duosi inson hayotida katta ahamiyatga ega. Ota-ona farzandiga toʻgʻri yoʻl koʻrsatadi. Dono insonlar ota-ona roziligini eng katta boylik deb bilganlar. Ota-onaga mehr koʻrsatgan farzand jamiyatda ham hurmat topadi. Ularning pand-nasihatlarini hayot yoʻlida yordam beradi. Ota-ona xizmatini qilish farzandning burchidir. Har bir farzand ota-onasini eʼzozlashi kerak. Ota-onamiz qariganda ularga gʻamxoʻrlik qilishimiz zarur. Ota-onani qadrlagan inson baxt va saodatga erishadi. Aziz tengdoshim, siz ota-onangizning maslahatlariga qay darajada quloq solyapsiz?

3. Topshiriq: (Qoʻllash – 20 ball)

1. Matnda qatnashgan shaxs otlarini toping. (5 ball)

2. Shaxs otlari ishtirokida matn mazmuniga xos gaplar tuzing (15 ball)

1. _____

2. _____

3. _____

Doʻstlik va sadoqat

Doʻstlik inson hayotida muhim oʻrin tutadi. Chin doʻst ogʻir kunda bilinadi. Doʻst insonni qoʻllab-quvvatlaydi. Sodiq doʻst har doim yoningizda boʻladi. Doʻstlik oʻzaro hurmatga asoslanadi. Doʻstlar bir-birining kamchiligini toʻgʻri koʻrsatadi. Sadoqat doʻstlikning eng muhim belgilaridan biridir. Yaxshi doʻstlar insonni yomon yoʻldan qaytaradi. Doʻstlar quvonchni ham, tashvishni ham birga baham koʻradi.

Soxta doʻstlik uzoq davom etmaydi. Chunki bunday doʻstlik samimiyat va ishonchga asoslanmaydi. Soxta doʻst qiyin vaqtlarda insonni yolgʻiz qoldiradi, dardlariga sherik boʻlmaydi. Shuning uchun har bir inson chin va sodiq doʻstlarni qadrlashi kerak.

3.(Qo‘llash – 20 ball)

1. Matndan fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlardan 8ta topib yozing. (5 ball)

Ular ishtirokida matn mazmuniga xos 3 ta gap tuzing. **(15 ball)**

1. _____

2. _____

3. _____

Ilm va ma‘rifat – hayot oftobi

Ilm insonni komillikka yetaklaydi. Bilimli inson jamiyatda hurmat qozonadi. Ajdodlarimiz ilmga katta e‘tibor berishgan. Alisher Navoiy ilmni eng katta boylik deb hisoblagan.

Ilm inson dunyoqarashini kengaytiradi. Bilim insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Ma‘rifat jamiyatni taraqqiy ettiradi. Ilm va ma‘rifat yonma-yon yuradi. Biz, yoshlar, ko‘p kitob o‘qib, bilim va ma‘rifatga ega bo‘lar ekanmiz, kun kelib olgan bilimlarimiz hayotimizga oftob misol nur sohib, yorug‘lik taratishini unutmasligimiz zarur.

Ilm mehnat orqali egallanadi. Bilim bilan muammolar oson hal qilinadi. Ilmli kishilar jamiyat rivojiga hissa qo‘shishadi. Kitob insonning eng yaqin do‘sti hisoblanadi. Har bir yosh bilim olmoqchi bo‘lsa, albatta, kitob o‘qishni odat qilmog‘i zarur. Ilm va ma‘rifat insonni yuksak marralarga olib chiqadi. Ilm kelajak poydevoridir.

2. Topshiriq: (Qo‘llash – 20 ball)

1. Matndan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlardan 9 ta topib yozing. (5 ball)

2. Ular ishtirokida matn mazmuniga xos 3 ta gap tuzing. (15 ball)

1. _____

2. _____

3. _____

Rostgo'ylik

Rostgo'ylik insonning eng muhim va ulug' fazilatlaridan biridir. Rostgo'y inson har doim odamlar orasida hurmat qozonadi. Rostgo'ylik insonning ichki dunyosi sof ekanini namoyon etadi.

Rost gapirish odamlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Rostgo'y inson yolg'ondan yiroq bo'ladi. Bunday inson vijdoni oldida o'zini erkin his qiladi. Rostgo'ylik insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Rost so'z insonning obro'sini oshiradi. Rostgo'y odam har qanday vaziyatda haqiqatni aytishga intiladi. Rostgo'ylik bizga ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy merosdir. Axir, "Boshingga qilich kelsa ham rost gapir",- deb bejiz aytmagan dono xalqimiz.

Rostgo'ylik tarbiya orqali shakllanadi. Ota-ona va ustozlar bolalarni rostgo'y bo'lishga o'rgatadilar. Rostgo'ylik do'stlik va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Yolg'on esa insonni noto'g'ri yo'lga boshlaydi. Yolg'on gapirgan odam asta-sekin ishonchni yo'qotadi. Bunday inson atrofdagilar hurmatidan mahrum bo'lishi aniq, shuning uchun har bir inson doimo rostgo'y bo'lishga intilishi zarur.

3. Topshiriq: (Qo'llash – 20 ball)

Matn mazmuniga xos 4 ta gap tuzing. Tuzgan gaplaringiz tarkibida harakat nomi, o'tgan, hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlari ishtirok etsin.

1.(harakat nomi) _____

2. (o'tgan zamon sifatdoshi) _____

3. (hozirgi zamon sifatdoshi) _____

4.(kelasi zamon sifatdoshi) _____

Mehnatsevarlik –inson ziynati

Mehnat inson hayotining mazmunidir. Mehnatsevar inson doimo muvaffaqiyatga erishadi. Ajdodlarimiz mehnatni ulug'laganlar. Halol mehnat inson hayotiga baraka keltiradi. Xalqimizda: "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli", - degan maqol bor.

Mehnat qilish orqali inson tajriba orttiradi. Mehnatsevar odam jamiyatda hurmat topadi. Biz, yoshlar, mehnat qilishga odatlanishimiz kerak. Mehnat insonni

chiniqtiradi va sabrli qiladi. Har qanday yutuq mehnat bilan keladi. Mehnat bizni eng katta orzularimizga erishtiradi.

Dangasalik inson hayotini zulmat sari olib boradi. Dangasa odam ko‘pincha muvaffaqiyatga erisha olmaydi, chunki dangasalik insonning imkoniyatlarini cheklaydi. Bunday inson vaqtni foydasiz ishlarga sarflaydi. Dangasalik umrning behuda o‘tishiga sabab bo‘lishini unutmasligimiz zarur.

3.Topshiriq: (Qo‘llash – 20 ball)

1. Matndan tarkibida yordamchi so‘z turkumlariga oid so‘zlar mavjud 2 ta gap tanlab oling. **(5 ball)**

2. Yordamchi so‘zlar ishtirokida matn mazmuniga xos 3 ta gap tuzib yozing. **(15 ball)**

1.

2.

3.

Tabiatni asrash

Tabiat inson hayotining ajralmas qismidir. Inson tabiatdan oziq-ovqat va turli resurslar oladi. Daraxtlar havoni tozalab, inson salomatligini saqlashga xizmat qiladi. Suv hayot manbai hisoblanadi. Qushlar va hayvonlar tabiat muvozanatini saqlaydi. Inson tabiatning bir qismidir, shu bois ham u tabiatsiz yashay olmaydi. Tabiat insonning makoni, hayot manbai, shuning uchun ham inson va tabiat o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Insonning tabiatga ongli, mas’uliyatli va ehtiyotkor munosabatda bo‘lishi, uni asrab-avaylashi ekologik madaniyatdir. Ekologik madaniyatga ega inson atrof-muhitni toza saqlashga harakat qiladi, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanadi. Afsuski, bugungi kunda ekologik muammolar dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Havo ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Suv manbalarining kamayishi va ifloslanishi ham katta muammolardan biridir. O‘rmonlarning kesilishi tabiiy muvozanat buzilishiga olib kelmoqda. Iqlim

o'zgarishi natijasida tabiat hodisalari ko'paymoqda. Shuning uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish va tabiatni asrash har bir insonning muhim vazifasiga aylanib qoldi.

Ayniqsa, har bir inson chiqindilarni maxsus chiqindixonalarga tashlashi kerak. Daraxt ekish savobli va foydali ish hisoblanadi. Darhaqiqat, "Birni kessang o'nni ek",- deb bejiz aytmagan ota-bobolarimiz.

Tabiatni sevgan inson uni asraydi. Albatta, biz, yoshlar tabiatni muhofaza qilish ishlarida faol ishtirok etishimiz lozim. Tabiatning "Ey, insonlar, meni asrang, bo'lmasa o'z hayotingiz qotiliga aylanasiz" deyotgan unsiz hayqirig'iga qalban, ruhan quloq solmog'imiz darkor. Atrof-muhitni toza saqlash bizning muhim vazifalarimizdan biri ekanini unutmasligimiz zarur. Shubhasiz, tabiatni asrash kelajakni asrash demakdir.

3. Topshiriq: (Qo'llash – 20 ball)

Matn mazmuniga xos 2ta undov so'z ishtirok etgan gap tuzing.

1. _____

2. _____

Milliy qadriyatlar va urf-odatlar – oltin merosimiz

Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz? Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz buyuk merosga ega merosxo'rlarmiz. Sababi, milliy qadriyatlar xalqning eng bebaho merosidir. Ular ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi va xalqimizning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini aks ettiradi.

Milliy bayramlar, xususan, Navro'z xalqni birlashtiradi va qadriyatlarni yosh avlodga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Qadriyatlarni asrash har bir insonning burchi bo'lib, ular millatning o'zligini saqlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning boy madaniy merosi xalqimizning dunyo xalqlari orasida tutgan o'rnini belgilaydi.

Qadimiy shahar va yodgorliklarimizdan Xorazmda joylashgan Ichan Qal'a, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, Samarqandning tarixiy obidalari UNESCO — Jahon merosi ro'yxatiga kirgani bizning merosimiz buyuk meros ekanidan dalolatdir.

Shunday qilib, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz, nafaqat, xalqimizning boy tarixi, balki butun dunyo tomonidan qadrlanadigan merosdir. Ularni saqlash, yosh avlodga yetkazish har birimizning sharaflı burchimizdir.

3.Topshiriq: (Qo'llash – 20 ball)

1. Matnda qatnashgan modal so'zlarni aniqlang. (5 ball)

2. Ular ishtirokida matn mazmuniga mos 3ta gap tuzing. (15 ball)

1. _____

2. _____

3. _____

Buyuk ajdodlar ibrati

Buyuk ajdodlarimiz biz uchun ibrat maktabidir. Ular ilm, ma'rifat va yurt ravnaqi yo'lida bor hayotlarini bahshida qilganlar.

